

# O'zbekiston Respublikasi

## Xalq ta'limi vazirligi

tomonidan darslarni o'tishda tavsiya etilgan

### «Dars muqaddas» metodik tavsiyasi

“Dars – muqaddas” tadbirini amalga oshirish:

**O'qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ta'lim muvaffaqiyati va samarasi garovidir.**

**Dars bu, sinfda taqvim-mavzu reja asosida belgilangan vaqt davomida o'qituvchi tomonidan o'quvchilar uchun o'quv-tarbiya jarayonining maqsadli tashkil etilishidir.**

Shunday ekan, har bir o'qituvchi darsga sifatli va puxta tayyorlanmasdan kirishni insoniylikka, pok vijdonga xiyonat ekanligini va ish haqini halolab olish lozimligini his qilishi kerak. Chunki, har bir fan o'qituvchisi faoliyati asosini sifatli dars o'tish, o'quvchilarga yaxshi ta'lim-tarbiya berish tashkil etadi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi ikki bosqichdan iborat:

1. O'qituvchining o'z fani yuzasidan **umumiy tayyorgarligi**.
2. O'qituvchining har bir darsga **kundalik tayyorgarligi**.

**O'qituvchining umumiy tayyorgarligi muntazam amalga oshirib boriladigan jarayon bo'lib, o'quv yili boshlanishi oldidan quyidagilarni qamrab oladi:**

- Davlat ta'lim standarti (DTS), o'quv dasturi, o'quv reja hamda ularga berilgan tushuntirish xatlarini o'rganib chiqish;
- O'zi dars beradigan o'quv faniga oid yangi ilmiy va metodik adabiyotlarning mazmuni bilan tanishish;
- tegishli ko'rgazma materiallarni, o'quv-jihozlarini o'rganish, ularni qo'llay bilish;
- ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish, tahlil qilish orqali o'z bilimini kengaytirish;
- komp'yuter texnikasidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirib, bu boradagi mahoratini oshirish, elektron darsliklar, matn muharrirlari, “Ziyonet” axborot ta'lim portaliga joylangan ma'lumotlardan samarali foydalanish kabilardir.

O'qituvchining **darsga kundalik tayyorgarligi** eng asosiy vazifalardandir.

**Darsga tayyorgarlik ko'rish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:**

**1-bosqich:** Taqvim-mavzu rejadagi yangi mavzu va unga ajratilgan vaqt (soat) aniqlashtirib olinadi.

**2-bosqich:** DTS va o'quv dasturidan o'tilayotgan mavzu yuzasidan o'quvchida qanday tushunchalar (bilim, ko'nikma va malakalar) shakllantirilib, lozimligi aniqlashtirilib, shu asosida dars maqsadlari belgilab olinadi.

**3-bosqich:** Mavzu asosida darsda foydalaniladigan texnik vositalar, elektron manbalar, slaydlar, ko'rgazmali va didaktik materiallar, adabiyotlar o'rganib chiqiladi hamda dars ishlanmasi (konspekti) yoziladi.

Dars ishlanmasi (konspekt)ning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

**Sana, sinf** (parallel sinflar uchun bitta mavzu bo'yicha alohida-alohida dars ishlanmasi(konspekt)ni yozish shart emas, bitta mavzuga bitta dars ishlanmasi yozilsa kifoya. 5-“A”, “B” sinflar deb ko'rsatiladi), fan nomi yoziladi.

**Darsning mavzusi** (taqvim-mavzu reja asosida).

**Dars maqsadi** (darsga qo'yilgan maqsad 45 daqiqa davomida bajariladigan (erishiladigan), aniq, hayotiy (real) va dars yakunida baholanadigan(o'lchamli) bo'lishi maqsadga muvofiq):

**a) ta'limiy maqsad** – dars jarayonida o'quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar asosida belgilanadi;

**b) tarbiyaviy maqsad** – dars jarayonida o'quvchilarda qaysi axloqiy sifatlar shakllantirilishi asosida belgilanadi;

**s) rivojlantiruvchi maqsad** – dars natijasida o'quvchilarda qaysi bilimlar va axloqiy fazilatlar rivojlantirilishi asosida belgilanadi.

**Dars turi:** yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi; o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi; umumlashtiruvchi; o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni tahlil, nazorat qiluvchi kabi dars turlari bo'lishi mumkin.

**Darsda foydalaniladigan metodlar:** bunda an'anaviy, zamonaviy, interfaol metodlardan o'tilayotgan mavzuning o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishiga xizmat qiladiganini oqilona tanlash lozim.

**Darsda foydalaniladigan jihozlar:** texnik vositalar, slaydlar, ko'rgazmali va didaktik materiallar.

**Darsni tarkiban quyidagi qismlarga ajratish mumkin:**

tashkiliy qism;

- o'tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash);
- yangi mavzuni tushuntirish;
- yangi mavzuni mustahkamlash;
- o'quvchilarni baholash;
- uyga vazifa berish.

Dars ishlanmasini tayyorlashda o'qituvchi darsning har bir qismini e'tiborga olishi maqsadga muvofiq.

Dars ishlanmasi (konspekt) hamma o'qituvchida bo'lishi shart. Lekin dars ishlanmasi qanday mazmunda, hajmda va necha varaqdan iborat bo'lishi o'qituvchining dars o'tishdagi o'ziga xos yondashuvidan kelib chiqqani ma'qul. Bunda hamma o'qituvchi uchun bir xil chegara, cheklov o'rnatib bo'lmaydi.

**Agarda o'qituvchi dars berayotgan o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligi yuqori bo'lsa, ular turli ko'rik-tanlovlarda yuqori natijalarga erishgan bo'lsa, o'qituvchining dars jarayoniga maktab ma'muriyati va hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari xodimlari tomonidan halaqit berishlariga yo'l qo'yilmaydi.**

**Dars ishlanmasi (konspekti) qo'lyozma shaklida yoki kompyuterda yozilishi mumkin. Dars ishlanmasini kompyuterda yozish uchun esa o'qituvchi, albatta, o'zi kompyuterda ishlashni bilishi lozim.**

Direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari har bir o'qituvchining dars ishlanmasini ko'rib, tasdiqlash jarayonida ularda darsga kirish uchun quyidagi eng muhim (minimum) hujjatlar bo'lishini nazorat qiladi:

- dars ishlanmasi (konspekti);
- taqvim-mavzu reja;
- o'quv dasturi;
- darslik.

O'qituvchilarning darslarini tahlil qilish – samaradorlikka xizmat qiladi.

O'qituvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashlari, ijodiy izlanishlari orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradigan omillardan biri – muntazam ravishda o'qituvchilarning darslarini tahlil qilishdir.

O'qituvchi darsini kuzatish va tahlil qilish, ularning pedagogik mahorati, ish tizimi, o'quvchilarning o'zlashtirishi, bilim darajasi kabi sohaviy va kasbiy layoqati yuzasidan xulosa chiqarish hamda o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashish imkonini beradi. Dars tahlili kuzatish va o'rganish shaklida olib boriladi.

Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi mudirlari, o'rinbosarlari, metodistlari tomonidan haftasiga kamida 2 soat, ta'lim muassasalari direktorlari, ularning o'rinbosarlari tomonidan 4 soat, fan metodbirlashma rahbari tomonidan 2 soat, o'qituvchilar tomonidan 1 soat o'qituvchilar darslari kuzatilishi va tahlil qilinishi belgilangan.

Dars kuzatish va tahlil qilish orqali o'quvchilarning umumiy tayyorgarligi, bilim olishdagi faolliklari, fanga bo'lgan qiziqishlari, o'quv materiallari va jihozlar bilan mustaqil ishlay bilishlari, o'qituvchiga bo'lgan munosabatlari aniqlanib, tahlilga tortiladi. Bunda asosiy mezonlar sifatida o'qituvchi tomonidan dars maqsadining to'g'ri qo'yilganligi, o'quv dasturi asosida dars jarayonini to'g'ri rejalashtirishi, materiallarini bilish darajasi, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida asosiy g'oyani ajratib olishi, ilmiylik, ko'rgazmalilik tamoyillariga rioya qilishi, darsda hamkorlikka erisha olishi, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazorat etishi, dars mobaynida vaqtdan unumli foydalanishi va pedagogik muomala madaniyatini egallaganlik darajasi kabi jihatlar inobatga olinadi.

**Unutmangki, sifatli dars – bu, o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilgan dars. Dars boshlangandan keyin hech kimning ushbu jarayonga halaqit berishiga yo'l qo'yilmaydi!**

# Informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetensiyalar

**(FK1) Axborotlarni izlash va elektron vositalarda yig'ish kompetensiyasi** — Informatika asos materiali (axborot olish, saralash) haqida va axborot turlari (uzlukli va uzluksiz) bilish. Axborot manbalarini bilish, axborotlarni saralash, axborotni tasvirlash, axborotni kodlash, axborotli model, axborotni qayta ishlash vositalari, ta'limiy axborot resurslar, Internet, Internetdan ma'lumotlarni olish usullari. Axborot bilan ishlashda odob-axloq normalari, multimedia texnologiyalari, hujjat yaratish, elektron pochta orqali muloqat qila olish va viruslardan axborotni himoya eta olish layoqatini hosil qilish.

**(FK2) Axborotlarni elektron vositalarda qayta ishlash va saqlash kompetensiyasi** — Matnli axborotni tahrirlash (formatlash, grafik elementlarni yasash, jadvallar hosil qilish, formulalar kiritish) grafik axborotni tahrirlash (grafik fayllarda matn kiritish va uni formatlash, grafik shakllarni o'zgartirish, ranglar bilan ishlash, animatsiya ssenariylarini yoza olish, fayllarni arxivlash (rar, zip arxivatorlarni ishlata olish) va h.k. layoqatini hosil qilish.

**(FK3) Axborotlarni elektron vositalar orqali uzatish kompetensiyasi** — Texnologiyalar orqali axborotlarni uzata olish, axborot havsizligini ta'minlay olish, Elektron pochta bilan ishlay olish, faksda axborot uzata olish, video konfrensiya orqali axborot uzata olish, huquqiy va ahloqiy me'yorlarni bilish, mualliflik huquqlarini bilish, erkin foydalaniladigan dasturlar, tijorat dasturlari, dasturlar litsenziyalarini farqlash va h.k. layoqatini hosil qilish.

---

## Tayanch kompetensiyalar

**(TK1) Kommunikativ kompetensiya** — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**(TK2) Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** — media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**(TK3) O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi** — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

**(TK4) Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**(TK5) Milliy va umummadaniy kompetensiya** — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**(TK6) Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi** — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

**Informatika-7. 1 – dars.**

Sinf						
Sana						

**Mavzu: Axborot tushunchasi va bilish haqida****Maqsad:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarga axborot tushunchasi, axborot so'zining kelib chiqish tarixi, inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumot berish (FK1)(TK2);

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, iqtisodiy tarbiya berish (TK5);

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarda axborot bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish (TK2).

**DTS:** O'quvchilar axborot tushunchasi, kompyuter so'zining kelib chiqishi tarixi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

**Kompetensiya:**

**FK1 (Axborotlarni izlash va elektron vositalarda yig'ish kompetensiyasi)** — Informatika asos material (axborot olish, saralash) haqida va axborot turlarini bilish; axborot manbalarini bilish, axborotlarni saralash, axborotni tasvirlash ko'nikmasiga ega bo'ladi.

**TK2 (Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi)** — media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olish layoqatlarini nazarda tutadi.

**TK5 (Milliy va umummadaniy kompetensiya)** — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini nazarda tutadi.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi

**Dars o'tish metodi:** Aqliy hujum, aralash, interfaol

**Dars jihozi:** Tarqatma materilallar, 7-sinf darsligi, jadvallar.

**Texnik jihozlar:** Kompyuter, multimedia vositalari, slaydlar, proektor

**Darsning blok chizmasi**

№	Dars bosqichlari	Vaqt	Usullar
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa	
2	O'tilganlarni takrorlash	7 daqiqa	Savol-javob, klasster, test
3	Yangi mavzu ustida ishlash	7 daqiqa	Ma'ruza, aqliy xujum
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa	Klasster, blits-savol, test
5	Yangi vazifa	3 daqiqa	

**Darsni borishi:****I. Tashkiliy davr**

1) salomlashish; 2) davomatni aniqlash. 3) sinf jurnalini to'ldirish

**II. Takrorlash****Savollar:**

1. Kompyuterning qanday qurilmalari bor?
2. Monitorning nechta turini bilasiz?
3. Matn protsessoriga qanday dastur misol bola oladi?
3. Matn muharrirlariga misol keltiring.

**III. Yangi mavzu bayoni**

Ma'lumki, axborot turli sohalarda turlicha tushunib kelinadi. Masalan, dehqon uchun axborot – yerning ozuqa bilan to'yinganligi yoki yetishtirilgan mahsulotning bozordagi narxi, muhandislar uchun – texnika va texnologiyalar; o'quvchi uchun fanlardan olayotgan ma'lumotlaridir. Ya'ni, turli soha xo dimlari o'z sohalari bilan bog'liq ma'lumotlarni axborot sifatida qabul qiladilar. Demak, inson doimo axborot bilan ish ko'rib kelgan.

«**Informatsiya**» so'zi turli tillarda ishlatilib, ma'nosi turlicha talqin qilinsa ham, ularning asosida lotincha informatio so'zi yotadi. U «tushuntirish», «tavsiflash», «xabar olish» degan ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilida informatsiya so'zi axborot deb tushuniladi.

Sizga ma'lumki, inson qo'li orqali jismning qattiq va tekisligini, tili orqali oziq ta'mini, burun orqali turli hidlarni biladi, qulog'i orqali har xil tovushlarni eshitadi, ko'zi orqali turli shakl, rang yoki manzaralarni ko'radi, ya'ni sezgi a'zolari orqali turli axborotlar oladi. Ya'ni inson axborotni hayotdan har xil ko'rinish

yoki shakllarda oladi: rasm, chizma, fotosurat, yozuv; nur yoki tovush; har xil to'liqlar; elektr va nerv impulslari; magnit yozuvlari; mimika; hid va ta'm; organizmlarning sifat va xususiyatlarini saqlovchi xromosomalar va hokazo.

### **Yodda saqlang !**

**Axborot** deganda biz barcha sezgi a'zolari miz orqali borliqning ongimizdagi aksi yoki ta'sirini, bog'liqlik darajasini tushunamiz.

Axborot nazariyasi asoschilaridan biri amerikalik **Klod Shenon axborotni narsa haqidagi bilimlari-mizdagi noaniqlikni bartaraf etilishi** kabi e'tirof etadi. Kibernetika fanining asoschisi **Norbert Viner axborotni bizni va sezgilarimizni tashqi olamga moslashuvimizdagi mazmuni ifodalash**, deb qaraydi.

Axborotga olimlar tomonidan yuqoridagi kabi ta'rif berishga urinishlar ko'p bo'lgan. Lekin axborot tushunchasiga har tomonlama ilmiy asoslangan ta'rif berish mumkin emas. Chunki axborot informatikaning asos tushunchasi bo'lib, u juda ko'p ma'noni o'z ichiga oladi. Ba'zan axborot sifatida unga sinonim bo'lgan ma'lumot yoki berilganlar so'zlari ham tushuniladi.

Axborot haqida tushunchaga ega bo'lish uchun hayotingizdagi bir misolni esga olaylik. Go'daklik vaqtingizda «muzqaymoq» so'zi sizga faqatgina «mazali shirinlik» ma'nosini anglatar edi. Uni boshqa shirinliklar ichidan nomi, ko'rinishi, ta'mi yoki sovuqligidan ajratib olardingiz. Maktab yoshingizda «muzqaymoq» so'zi «shakar, qaymoq, kakao yoki kofe kabi o'zaro bog'langan modda va tushunchalar hamda muzqaymoqni tayyorlash usullari bilan bog'liq ma'lumotlar bilan to'ldi. Keyinchalik esa «muzqaymoq» haqidagi ma'lumot to'liq emasligini, vaqti kelib bu so'z yana boshqa ma'lumotlar bilan to'lishini tushunish qiyin emas. Demak, inson yillar davomida hayotdan ma'lumotlar olar ekan, birini ikkinchisi bilan bog'lab to'ldirib boradi.

Hozirgi davrga kelib xuddi avvaldan buyurtma qilingani kabi, dasturiy boshqaruvli hisoblash mashinalari ishlab chiqarish uchun ilmiy va texnik sharoitlar yuzaga kelgan edi. Ishlab chiqarilgan elektron hisoblash qurilmalari axborotni «qog'ozsiz» texnologiya asosida izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatish imkonini bera boshladi. Buning negizida XX asrning 50-yillarida yangi fan – informatika-ga asos solindi. **Informatika** atamasi fransuzcha **informatique** (*information* – axborot va *automatique* – avtomatika) so'zi negizida hosil bo'lgan. Uning mazmuni «axborot bilan avtomatik ishlash» deb tushuniladi. Bu atamaning inglizcha varianti ham mavjud bo'lib, u «**Computer science**», ya'ni «**kompyuter ilmi**» deb ataladi.

Informatika quyidagi ikki qismning birligi sifatida qaraladi:

- **texnik** (*hardware*)
- **dasturiy** (*software*) vositalar.

**Texnik vositalar** – bu kompyuterning qurilmalari bo'lib, ingliz tilida Hardware so'zi bilan ataladi, mazmuni esa «qattiq mahsulotlar» kabi tushuniladi.

Dasturiy vositalar uchun juda qulay Software so'zi (mazmunan «yumshoq mahsulotlar») tanlangan (aniqrog'i hosil qilingan) bo'lib, u dasturiy ta'minot bilan mos mashina mutanosibligini, shu bilan birga dasturiy ta'minotning o'zgarishi, moslashuvi va rivojlanishini ta'kidlaydi. Dasturiy ta'minot – bu kompyuterlarda foydalaniladigan barcha dasturlarning majmui hamda ularni ishlab chiqish va qo'llashning barcha sohasidir.



#### **IV. Mavzuni mustahkamlash.**

##### **Savol va topshiriqlar:**

1. Informatika fanining o'tmishdoshi qanday atalgan?
2. Informatika faniga asos solinishi haqida so'zlab bering.
3. Axborot va bilish haqidagi Forobiy fikrlarini tahlil qilib bering.
4. Axborot tushunchasini tahlil etib bering.
5. Informatika fanining asosiy rivojlanish yo'nalishlari haqida so'zlab bering.

##### **V. Uyga vazifa:**

- 1, 2, 3, 4-mashqlar



**Informatika-7. 2 – dars.**

Sinf						
Sana						

**Mavzu: Axborotlar ustida bajariladigan amallar.****Maqsad:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarga axborotlar ustida bajariladigan amallar, axborotlarni saqlash va ular bilan ishlash haqida ma'lumot berish; (FK1)

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarni doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish ko'nikmalarini yuzaga chiqarish; (TK3)

**Rivojlantiruvchi:** O'quvchilarda media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish. (PK2)

**DTS:** O'quvchilar axborot va axborot ustida amallar bajarish ko'nikmasiga ega bo'lishadi

**Kompetensiya:**

(FK1) **Axborotlarni izlash va elektron vositalarda yig'ish kompetensiyasi** — o'quvchilar axborotlarni izlash va elektron vositalarda yig'ish ko'nikmasiga ega bo'lishadi;

(TK2) **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** — o'quvchilar media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishadi;

(TK3) **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi** — O'quvchilarni doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish ko'nikmalari yuzaga chiqariladi.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi**Dars o'tish metodi:** Aqliy hujum, aralash, interfaol**Dars jihozi:** Tarqatma materiallar, 7-sinf darsligi, jadvallar.**Texnik jihozlar:** Kompyuter, multimedia vositalari, slaydlar, proektor**Darsning blok chizmasi**

Nº	Dars bosqichlari	Vaqt	Usullar
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa	
2	O'tilganlarni takrorlash	7 daqiqa	Savol-javob, klasster, test
3	Yangi mavzu ustida ishlash	17 daqiqa	Ma'ruza, aqliy xujum
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa	Klasster, blits-savol, test
5	Yangi vazifa	3 daqiqa	

**Darsni borishi:****I. Tashkiliy davr**

1) salomlashish; 2) davomatni aniqlash. 3) sinf jurnalini to'ldirish

**II. Takrorlash****Savol va topshiriqlar:**

1. Informatika fanining o'tmishdoshi qanday atalgan?
2. Informatika faniga asos solinishi haqida so'zlab bering.
3. Axborot va bilish haqidagi Forobiy fikrlarini tahlil qilib bering.
4. Axborot tushunchasini tahlil etib bering.
5. Informatika fanining asosiy rivojlanish yo'nalishlari haqida so'zlab bering.

**III. Yangi mavzu bayoni**

Odatda, inson e'tibori yo'naltirilgan buyum, hodisa, jarayon, amal, xususiyat yoki munosabat **obyekt** deb ataladi. Informatikada narsa, jarayon, moddiy va nomoddiy xususiyatli hodisalar ularning axborot berish xususiyatlaridan kelib chiqib **axborot obyektlari** deb ataladi.

Odatda, biror axborot ma'lum bir maqsadda foydalanish uchun eslab qolinadi yoki saqlab qo'yiladi. Foydalanish maqsadidan kelib chiqadigan bo'lsak, saqlab qo'yilishi uchun axborot bizning ba'zi talablarimizga javob berishi shart. Axborotga qo'yiladigan talablar umumiy mazmuniga ko'ra birlashtirilsa, ular, asosan, quyidagi muhim uchta xususiyatga ega bo'lishi lozim:

➤ ma'lum darajada **qimmatli bo'lishi**. Aks holda undan foydalanish ehtiyoji tug'ilmaydi. Qimmatli axborot vaqt o'tishi bilan o'z qimmatini yo'qotishi mumkin. Masalan, «30-sentyabr kuni tantana o'tkaziladi» degan axborot 1-noyabrda o'z qimmatini yo'qotadi;

➤ **to'liq bo'lishi.** Ya'ni axborot o'rganilayotgan narsa yoki hodisani har taraflama to'liq ifodalashi lozim. Aks holda axborotni noto'g'ri tushinishga va natijada, xato qaror qabul qilishga olib keladi. Masalan, sinf rahbaringizning «Yakshanba kuni barchamiz teatrga boramiz, shuning uchun hamma teatr binosi oldida yig'ilsin» degan axboroti to'liq emas, chunki qaysi teatr, qaysi yakshanba, soat nechadali noma'lum;

➤ **ishonchli bo'lishi.** Aks holda undan foydalanish xato qaror qabul qilishga va noxush natijalarga olib keladi. Masalan, hazilkash sinfdoshingizning «Matematikadan bo'ladigan nazorat ishi qoldirildi» degan axborotiga asosan nazorat ishiga tayyorlanmaslik qanday natijaga olib kelishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas.

Biror bir axborotda shu xususiyatlardan birortasining yo'qligi uning bizning talablarimizga javob bera olmasligiga, qisqacha aytganda, bu axborotdan foydalanib bo'lmazligiga va nihoyat, saqlab qo'yish uchun arzimasligiga asos bo'ladi.


Axborotning bu 3 ta asosiy xususiyatidan tashqari boshqa xususiyatlari ham bo'lib, axborot **tushunarli, qisqa** yoki **batafsil** ifoda etilishi zarurligini ta'kidlab o'tish joiz. Axborotni ishlatish maqsadidan kelib chiqib, uning ortiqchalilik xususiyatlarini ham bilish zarur.

Axborotlar inson xotirasidan tashqari turli xil vositalarda, masalan, kitob, gazeta va magnitli tasmlarda, kompyuterlarning esa maxsus vositalarida saqlanadi. Ular **axborot tashuvchi vositalar** deb ataladi.




### Axborot tashuvchi ba'zi vositalar

Azaldan axborotlar ustida bajariladigan asosiy amallar – **to'plash, qayta ishlash** va **uzatishni bajarish** uchun insonning turli vositalarga bo'lgan ehtiyoji ortib borgan va unga ko'ra, u har xil qurilmalar yaratib, hayotga tatbiq eta boshlagan.



Endi borliq ta'sirining inson ongida axborot ko'rinishida aks etish jarayonini quyidagi ko'rinishda tasvirlashimiz mumkin:



#### IV. Mazuni mustahkamlash.

##### Savol va topshiriqlar:

1. Axborotni hosil qilish, to'plash, soddalashtirish jarayonlariga misollar keltiring.
2. Axborotni nusxalash, o'lchash, buzish jarayonlarini tahlil etib bering.
3. Axborotlarni uzoq masofaga uzatish usullariga misollar keltiring.
4. Axborotlarni kompyutersiz va kompyuterda saqlash vositalariga misollar keltiring.
5. Inson tanasiga bog'liq ravishda axborot manbai, aloqa vositasi va axborot qabul qilish vositalariga misollar keltiring.
6. Texnik vositalardan axborot manbai, aloqa vositasi va axborot qabul qilish vositalariga misollar keltiring.

#### V. Uyga vazifa:

- 1, 2, 3, 4, 5-mashqlar

# Kompetensiya asosida tuzilgan Yillik dars ishlanmani to'liq yuklab olish uchun:



**Telegram: @shahz8 bilan boglaning**

Kompetensiyaviy yillik dars ishlanmalar dars muqaddas tavsiyasi asosida tuzilgan.

**Yillik dars ishlanma fayli telegram yoki elektron pochta orqali jo'natiladi.  
To'lov: Click yoki Payme orqali kartadan-kartaga.**

**WWW.IDUM.UZ**